

**O'ZBEKISTON – FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI BILAN
FINLANDIYA FANI, TA'LIMI HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI**

Xaydarov B.T.

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti professori

Masharipov Y.

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika institutini Finlandiya institutlari bilan ilmiy aloqalarini yaxshilash, institutimizda ta'lif olayotgan talabalarda, o'z kuchiga ishonch va yuksak ko'tarinklik hissini tug'diradi.

Kalit so'zlar: Institut, aloqa, fan, maktab, o'qituvchi, malaka.

**ISSUES OF DEVELOPMENT OF FINNISH SCIENCE, EDUCATIONAL
COOPERATION WITH THE UZBEK-FINNISH PEDAGOGICAL
INSTITUTE**

Annotation

Improving the Academic Relations of the Uzbek – Finnish pedagogical Institute with Finnish institutions, creating a sense of confidence and high elevation in its strength in students studying at our institute.

Keywords: Institute, communication, science, school, teacher, qualification.

Finlandiya – maktablarida dars fin yoki shved tillarida o'tiladi. 1921 yili majburiy 8 yillik ta'lif haqida qonun qabul qilingan. Davlat maktablari bilan birga xususiy maktablar ham bor. 1968 yili mamlakatda yagona 9 yillik asosiy maktablar joriy qilingan. 1974-1975 o'quv yili 673 mingga yaqin o'quvchi, 1972-1973 o'quv yili gimnaziyalarda (litseylarning yuqori sinflari) 320 mingga yaqin o'quvchi o'qidi. Professional ta'lif davlat, munitsipal va xususiy hunar bilim yurtlari va maktablarda berildi.

O'rta maxsus ta'lif institutlar deb ataladigan (texnika, pedagogika, kommersiya) o'quv yurtlarida amalga oshiriladi (3-4 yillik), 1975-1976 o'quv yili Finlandiya 17 Oliy o'quv yurti (12 davlat va 5 xususiy)da 75 ming student o'qidi; 8 universitet; Xelsinki universiteti, Yuvyaskyulya, Turku, Oulu, Tamperi, Turkudagi Shved universiteti (Abo Akademiyasi), 3 Oliy texnika maktabi, 5 Oliy kommersiya maktablari, Veterinariya maktabi, shuningdek qator maxsus o'quv yurtlari, Ya.Sibelius nomidagi musiqa akademiyasi, 4 ta chet tillar instituti, harbiy akademiya va boshqa oliy ta'lif dargohlari bor.

Yirik kutubxonalari: Xelsinki universiteti kutubxonasi (1640 yili tashkil etilgan, 1.6 mln.asar), Xelsinki shahri kutubxonasi (1960, 873.5 ming asar), Xelsinkida Milliy muzey, Shahar muzeyi, Xelsinki universitetining Zoologiya muzeyi) va boshqa ma'rifat maskanlari bor.

Finlandiya fan va ilmiy muassasalari, 18 asrga qadar Finlandiyada milliy ilmiy kadrlar yo'q edi. Mamlakatdagi yagona universitet (akademiya) Abo (Turku)da 1640

yilda ochilgan edi. O‘qish shved tilida olib borilar edi. 1908 yili Finlandiya fan va adabiyot akademiyasi tashkil etildi, uning qoshida geofizika observatoriyasi ochildi, fan olimlari amaliy bioximiya (A.I.Virtanen; Nobel mukofoti, 1945), (Y.E.Vuorinen; 1967 yildan VASXKIL chet el a’zosi), Mikrobiologiya (X.Gyulenberg; 1976 yildan SSSRFA chet el a’zosi) va bu sohalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Finlandiyada ijtimoiy fanlarning paydo bo‘lishi 16-18 asrga to‘g‘ri keladi. Filosofiya, tarix, iqtisod sohasidagi ilmiy ishlar asosan universitetlarning filosofiya kafedralarida olib boriladi. Oliy o‘quv yurtlaridagi 50 dan ortiq ilmiy tadqiqot institutlari va laboratoriylarida 3 mingdan ortiq mutaxassis ishlaydi. [1.111 b]

2001 yilda o‘n besh yoshli fin o‘quvchilari o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha tanqidiy fiklash ko‘nikmalarini baholash uchun mo‘ljallangan “Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi” (PISA)da eng yuqori ball olgani butun dunyonи hayratda qoldirdi.

PISA testi natijalari sabab Finlandiya maktablarining ta’lim tizimi eng yaxshi deb tan olingach, dunyoning barcha qit’alaridagi pedagoglar fin hamkasblarining siri nimada ekanligini bilish uchun ularning tajribalarini o‘rganishga kirishdilar.

Xelsinkidagi maktabda ikki yil ishlagan amerikalik o‘qituvchi Timoti Uoker fin maktablaridagi muvaffaqiyatlarning zamirida juda oddiy tamoyil – o‘quv jarayonlarida, quvonch mavjudligini ta’kidlaydi. Qisqa o‘quv kuni, engil uy vazifalari va kam standartlashtirilgan testlar bu faqat samarali ta’lim tizimining tashqi jihatlari, xolos [2. 3b]

Uoker o‘z kitobida fin ta’lim tizimi qanday tashkil etilgani, nima uchun o‘quvchilar bilan ularning baholarini muhokama qilish kerakligi, bolalarga ixtiyor erkinligini berish va ular bilan birgalikda kunni rejalashtirish o‘g‘il-qizlarning mustaqil bo‘lishiga qanday yordam berishi, devorlardagi ko‘rgazmali materiallarning haddan ziyod ko‘pligi o‘zlashtirishning pasayishiga olib kelishi, necha tanaffus chog‘ida o‘qituvchi bolalar bilan birga o‘ynashi muhimligi kabi masalalar haqida hikoya qiladi. Ushbu kitobda muallif o‘zbek maktablarida ham qo‘llasa bo‘ladigan 33 ta strategiyani taklif etadi. [2. 9b]

Finlandiyada 1980 yillarda oliy ta’limda keng ko‘lamli isloxitlar amalgalashirildi va shundan keyin barcha o‘qituvchilar ilmiy tadqiqot qilishi hamda magistr ilmiy darajasini olishi majburiy deb belgilab qo‘yildi. Har bir bitiruvchining bola psixologiyasi, pedagogika, defektologiya, o‘qitish metodikasi va o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha olgan bilimlari ularning tajribali hamkasblariga qaraganda bir necha barobar qo‘proqdir. Bu esa yosh o‘qituvchining maktab vakolatlarini yanada kengaytirish imkonini berdi.

O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika institutida hozirgi kunda tashqi ilmiy va madaniy aloqalari kun sayin rivoj topmoqda. O‘qituvchilar Finlandiya, Azarbajxon, Qozon kabi mamlakatlarga borib ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtiroy etib o‘z malakalarini oshirib kelmoqdalar. Bularning hammasi O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti shuhratini jahonga tanitish bilan birgalikda, institut professor-o‘qituvchilarining xalqaro anjumanlarda bellashuvga tayyor ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбек совет энциклопедияси, 12 том. Тошкент, 1979.
2. Тимоти Уокер. Финландия таълим мўъжизаси. Тошкент, 2023.
3. o‘zbekistonda gender munosbatlari tarixi A.M.Rahmatovna tadqiqotlar. uz
4. Globallashuv jarayonida sharq mentalitetidagi gender tengligiga bo‘lgan munosabat AM Rahmatovna Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 5 (5),